

**FALSAFA FANLARI YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG”
ASARIDAGI AXLOQIY-FALSAFIY G‘OYALAR**

Berdaliyeva Sevara Damirovna

Alfraganus universiteti

“Pedagogika va psixologiya”

kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning axloqiy qarashlarini shakllanishining tarixiy-ijtimoiy omillari haqida batafsil yoritilgan. Maqolada, shuningdek, muallifning mavzuga doir fikrlari, asaridan parchalar, turli tadqiqotchilarining fikr mulohazalarini taqqoslagan va tahlil qilgan holda yoritib beriladi. Bundan tashqari, “Qutadg‘u bilig” asarining tarixiy hamiyati ham oolib beriladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy qadriyat, buyuk mafkura, olam, jamiyat, insonparvarlik, davlat, boshqaruv, burch, bilim, zakovat, qadr, halollik, hurmat, oqibat, odob.

**ИСТОРИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ
НРАВСТВЕННЫХ ВЗГЛЯДОВ ЮСУФА ХОС ХАДЖИБА**

Бердалиева Севара Дамировна

Университет Альфрагануса

«Педагогика и психология»

преподаватель кафедры

Аннотация: В данной статье подробно описаны исторические и социальные факторы формирования нравственных взглядов Юсуфа Хоса Хаджиба. В статье также освещаются мысли автора по теме, выдержки из его работ, сравнение и анализ мнений различных исследователей. Кроме того, будет раскрыто историческое значение произведения «Кутадгу Билиг».

Ключевые слова: духовная ценность, великая идеология, мир, общество, человечество, государство, управление, долг, знание, интеллект, ценность, честность, уважение, последствия, манеры.

**HISTORICAL AND SOCIAL FACTORS IN THE FORMATION OF THE
MORAL VIEWS OF YUSUF KHOS KHAJIB**

Berdaliyeva Sevara Damirovna

Abstract: This article discusses in detail the historical and social factors that shaped Yusuf Khos Hajib's moral views. The article also presents the author's thoughts on the subject, excerpts from his work, and the opinions of various researchers, comparing and analyzing them. In addition, the historical significance of the work "Qutadgu bilig" is also revealed.

Key words: spiritual value, great ideology, world, society, humanity, state, governance, duty, knowledge, intelligence, dignity, honesty, respect, consequence, decency.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadgu bilig” asari, o‘z davrining axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarini aks ettirgan muhim manbadir. “Qutadg'u bilig” – buyuk mafkuraviy, falsafiy asar. Bobolarimizning yuzyilliklar osha bizga qoldirgan olam va jamiyat haqidagi qarashlari badiiy marjonga tizilgan kitob. Yusuf Xos Hojib o‘zining ilg’or insonparvarlik qarashlari, davlat va jamiyat boshqaruvi, yurtning rivoji, davlatdagi turli mansab egalarining burchi, ularga qo’yiladigan talablar, bilim va zakovatning qadri, halollik, kishilar o’rtasidagi o’zaro hurmat, oqibat, odob, ta’limtarbiya to’g’risidagi o’y-fikrlarini asar qahramonlarining tilidan munozaratishuvlari asosida yoritib beradi. “Qutadg'u bilig” asari o’rta asrlarda turk dunyosidagina emas, butun Sharq adabiyotida shoh kitob sifatida dovrug’ qozondi. Shu bois ham asar bir necha avlod turkologlar tomonidan muntazam ravishda o’rganilib, tadqiq etib kelinmoqda[6:4]”.

Asar, ideal inson, adolatli hukmdor va bilim olishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bugungi kunda ham bu g‘oyalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy hayotda ijtimoiy adolat, axloqiy me’yorlar va ruhiy rivojlanish kabi masalalar doimo muhokama qilinadi. “Qutadg'u bilig” asarining g‘oyalari o‘z zamonida yuzaga kelgan muammolarni hal etishdan tashqari, hozirgi avlodlar uchun ham ma’naviy yo‘l-yo‘riq sifatida ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning axloqiy saboqlari, insoniyatni yanada yaxshi hayotga erishish yo‘nalishida yo‘naltiruvchi sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, Hojibning asari zamon bilan ajralmas bog‘lanishga ega bo‘lib, ma’naviy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi, hayotimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi manba sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. “Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish bugungi kunimizning asosiy vazifalaridan biridir[8:6].

“Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda jadal ilgari surilayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasi ko‘p jihatlari bilan qadimdan davom etib kelayotgan milliy va

ma’naviy qadriyatlarimizga taalluqlidir. Shuning uchun ham ana shu davrda olib borilgan Sharq Renessansi davri allomalarining ilmiy-falsafiy merosini o‘rganish borasidagi tadqiqotlarda asosan materializm ruhi ustuvorlik qilib, tarixiy haqiqatlar buzib ko‘rsatildi[14:412]”. Yosh avlod, bilim, ma’naviyat va kreativlik bilan to‘ldirilgan bo‘lib, kelajakda mamlakatimizni rivojlantirishda asosiy omil bo‘ladi. Bugungi kunda, yoshlar o‘z maqsadlariga erishish uchun zamonaviy ta’lim tizimi va innovatsion imkoniyatlardan foydalanmoqda. Ular global muammolarni yechishda, ijtimoiyadolatni ta’minlashda va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda faol ishtirok etmoqdalar. Yoshlarning fikrlari va g‘oyalari ijtimoiy o‘zgarishlar uchun zarur yangi yondashuvlarni taklif etadi. Yoshlarni tarbiyalash va ularga yetarli imkoniyatlar taqdim etish jamiyatning muhim vazifasidir. Ularning madaniyat, san’at va sport sohalaridagi muvaffaqiyatlari, shaxsiy rivojlanish bilan birga, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro‘sini ham oshiradi. Yoshlar kelajagimizdir, ularning bilim va mahorati bilan qudratli, barqaror va jozibador O‘zbekistonni barpo etish mumkin. Shuning uchun, yoshlarning fikrlari va ishtiy yoqi, har birimiz uchun katta ahamiyatga ega. Ularni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, kelajagimizni porloq qilish yo‘lidagi eng muhim qadamdir.

Dastlab, Qoraxoniylar davlati haqida bastafsil to‘xtalib o‘tsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Qoraxoniylar davlati yoki qisqacha Qoraxoniylar – 840 - 1212-yillar oralig‘ida O‘rta Osiyo va Movarounnahrda hukmronlik qilgan turkiy sulola. Bu Markaziy Osiyoda barpo etilgan ilk turkiy-islomiy davlatdir”. Ba’zi bir qarashlarga ko‘ra, “Qoraxoniylar davlati qarluq turkiy qabilalariga mansub bo‘lgan[6:58]”. “389/999-yillarda Ilekxon (388-403/998—1013) qo‘mondonligi ostidagi qoraxoniylarning hujumlari ularga Movarounnahr hududidagi hukmronlikni qo‘lga kiritish imkonini berdi”. Balxning shimoli, ya’ni Karaning yo‘nalishi (tomoni) turk darvozasidir. Janub darvozasi hind, g‘arbiy darvozasi yahudiy, sharqiy darvozasi esa xitoy. Qora *kuchli*, *ulug‘vor* va *jasur* degan ma’noni ham anglatadi. Shuning uchun ular bu nomni olishlari kerak edi. “Mahmud G‘azniyga Xitoylar tomonidan berilgan “Qoraxon” atamasi ham huddi shunday ma’noga ega. “Qora” *buyuklik*, *balandlik* va *ustunlikni* anglatadi”. 840-yilda Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarida “podshoh yag‘ma” yoki “ilakxon” deb ataladigan Qoraxoniylar davlati paydo bo‘ldi. “Tarixdan ma’lumki, Qoraxoniylar mamlakati O‘rta Osiyoning Sharqiy hududlarida bir qancha turkiy urug‘larning birlashuvi va qo‘shilishi natijasida yuzaga keladi. Davlat asoschisi Abdulkarim Sotiq Bug‘roxon edi. Uning urug‘i turkiy qavmlarga mansub bo‘lgan. Bug‘roxon hamda avlodlari “Arslonxon” yoki “Qoraxon” ba’zan esa “Tabg‘achxon” deb ulug‘lanishgan, ushbu so‘zning lug‘aviy ma’nosи “ulug‘”, “buyuk” degan ma’nolarni bildirib turgan. Mamlakat yuksalgan davrlarda uning hududiga bir qancha mintaqalar ham qo‘shiladi. Bolasog‘un shahri davlat poytaxti sifatida belgilanadi[4:19]”.

X asrning ikkinchi yarmida esa bu davlatning sultanat darajasidagi rivoji boshlangan. Abdulkarim Sotuq Bug‘roxon hokimiyatni qo‘lga olib, o‘zini “Qoraxon” sifatida e’lon qildi va bundan keyin Bug‘roxondan kelayotgan barcha xonlar ham ushbu unvonga ega bo‘ldi. 992-yilda Elikxon Bug‘ra boshchiligidagi Qoraxoniylar qo‘smini Movarounnahrga hujum uyuştirdi. Ushbu davrda Elikxon Nasr Buxoroga qaytadan hujum qilib, 995-996-yillarda Nuh II Sabuh Tegin boshchiligidagi kuchlar tomonidan to‘xtatildi. 999-yilda esa Qoraxoniylar Buxoroni yana egallab, amir Abdul Malik II va uning oilasini asirga oldilar. Bu fojiali voqeа Movarounnahrdа hokimiyat muvozanatini Qoraxoniylar foydasiga keskin o‘zgartirib yubordi. Qoraxoniylar davlati Koshg‘ardan Amudaryogacha uzanib, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Shosh, Farg‘ona va qadimgi So‘g‘d hududlarini o‘z ichiga oldi. Bu zamonlar, qahr-g‘azab va sadoqat to‘la zaminlarda, ulkan bir imperiyaning tug‘ilishi va qulashini kuzatishning guvohi bo‘ldi. Qoraxoniylar, o‘z kuchlari bilan, yurtning taqdirini belgilab, tarix sahnasida yangi sahifalar yozishga harakat boshlandi. 1005-yilgacha Somoniylarning so‘nggi vakili al-Muntasir, Qoraxoniylar bilan qattiq kurash olib bordi, lekin raqiblarning soni g‘alabani ta’mindadi. Bog‘dod halifasining fatvosi bilan Elikxon Nasr ibn Ali Movarounnahrdа o‘z hukmronligini o‘rnatdi. Qoraxoniylar bu yerlarni egallagach, dehqonlar tabaqasini yo‘q qilib, ularning yer va suvlarini davlat mulkiga aylantirdilar. Elikxon Nasr 1012-yilda vafot etganidan so‘ng, uning o‘rnini ukasi Ali Tegin egalladi. Bu voqealar tarix sahnasida yangiliklar bilan to‘lgan bir davrni belgilab berdi, qahramonlarning taqdiri esa o‘zgaruvchan va g‘aroyib edi.

Qoraxoniylar Amudaryo vodiysi uchun G‘aznaviylar davlatiga qarshi urush olib boradi va XI asr oxirida Saljuqlarning kuchayishi bilan bo‘ysunadi. Elikxonning dastlabki poytaxti Uzgenda joylashgan bo‘lib, keyinchalik Samarqandga ko‘chiriladi. Buxoro ham Samarqandga bo‘ysunadi. Qoraxoniylar Samarqand, Buxoro va Binkentda ko‘plab arxitektura obidalarini qurishdi, jumladan, saroylar, masjidlar va madrasalar, musulmon dinining nufuzini mustahkamlashda katta hissa qo‘shdilar. “Davlat chegaralarida islom dini tez sur’atlarda tarqaldi. Qoraxoniylar o‘z hududlarini Somoniylar sulolasiga tegishli joylar hisobiga kengaytirish maqsadida faol harakat qildilar. Bu davrda Somoniylar chuqur siyosiy va iqtisodiy inqirozga duch kelib, kuchsizlandi. Shunday murakkab sharoitda Qoraxoniylar Buxoroni deyarli qarshiliksiz egallab olishdi. Ammo Hasan Bug‘roxon betob bo‘lganligi sababli Buxoroda uzoq turmay, Qashqarga qaytayotganda vafot etdi. 996-yilda Qoraxoniylar yana Movarounnahrga yangi yurish boshladilar. G‘aznaviylar bilan olib borilgan muzokaralar natijasida shartnoma imzolandi, bunda Sirdaryo havzasi Qoraxoniylar nazoratiga o‘tdi[5]”. Amudaryoning janubidagi hududlar va Xuroson Sabuktegin tomonidan boshqariladigan qilib belgilandi. 1006- va 1008-yillarda Qoraxoniylar Xurosonga hujum qilib, Balx, Tus va Nishopur shaharlarini zabit etdilar. Biroq Sulton Mahmud G‘aznaviy Qoraxoniylarga zarba berib, Xurosonni o‘z qo‘lida saqlab qoldi.

G‘aznaviylar, o‘zlarining yer berib homiylik qilgan Saljuqlarga qarshi ziddiyatlarga kirishdi va bu jarayonda muhim harbiy to‘qnashuvlar ro‘y berdi. 1040-yilda Dandanakon jangida G‘aznaviylar Saljuqlardan jiddiy zarba olib, o‘zlarini qayta tiklash imkoniyatiga ega bo‘lmadi.

Ushbu inqirozdan esa Qoraxoniylar mahalliy hukmdor Ibrohim Bo‘ritegindan foydalandilar, u dastlab G‘aznaviylardan Xuttalon, Vaxsh va Chag‘oniyon hududlarini egallahsga muvaffaq bo‘ldi. “Keyinchalik u Movarounnahr va Farg‘onani butunlay o‘z nazorati ostiga olib, mustaqil siyosat yurita boshladi. Natijada, 1040-yilga kelib, Qoraxoniylar davlati ikki mustaqil qismga bo‘linib ketdi: G‘arbiy xoqonlik (Samarqand, Buxoro, Xuttalon, Chag‘oniyon)da somoniylar davrida mavjud bo‘lgan boshqaruv tizimi (bosh vazir, moliya ishlari, davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish, soqchilar boshlig‘i, xat-xabarlar, saroy ish boshqaruvchisi, muxtasib, vaqflar, qozilik ishlari devonlari) saqlanib qolgani ma’lum. Shuningdek, viloyat boshliqlarini hokim, shahar boshlig‘ini rais deb atash rasmi ham o‘zgarmagan[5]”. Sharqiy qismga Yettisuv, Qashqar, Taroz, Isfijob, Shosh va Sharqiy Farg‘ona kirib, uning poytaxti Bolasog‘un bo‘ldi, madaniyat markazi esa Qashqar sifatida rivojiana boshladi. G‘arbiy qismi Movarounnahrdan Farg‘ona vodiysining g‘arbiy chegarasigacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga oldi va uning markazi Samarqand edi. Qoraxoniylar davlati ikkiga bo‘lingach, ularning o‘rtasida sulolaviy kurashlar, yerga egalik qilish tartibining kengayishi va mahalliy hokimlarning kuchayishi markaziy hokimiyatni zaiflashtirdi. Natijada, 1130-yilda Qoraxoniylar Saljuqiylar hukmdori Sulton Sanjarga bo‘ysunishga majbur bo‘ldilar. XII asrning 30-yillari oxirida sharqdan kelgan ko‘chmanchi Qoraxitoylar tomonidan amalga oshirilgan hujum natijasida Qoraxoniylar davlati parchalanib ketdi. Biroq, bu buyuk sulola, garchi tarqoq holda bo‘lsa-da, XIII asr boshiga qadar mavjudligini saqlab qoldi. 1212-yilda Qoraxoniylarning so‘nggi vakili Usmon ibn Ibrohim Alouddin Muhammad Xorazmshoh tomonidan qatl etilgach, Qoraxoniylar sulolasi tarixi sahnasidan rasman yo‘q bo‘lib ketdi. Ularning o‘tkir kuchlari va buyuk meroslari, hozirgi kunda ham unutilmas yodgorliklar sifatida yodda qolmoqda.

“Qoraxoniylar davlati vujudga kelgan dastlabki paytlarda, uning etnik asosi va aholisi tarkibini Yettisuv, Isfijob, Shosh, Sharqiy Turkistonning g‘arbiy qismi va Farg‘onaning shimol-sharqiy hududlarida yashovchi turkiy qabilalar, jumladan, qarluq, chigil, xalach, to‘xsi va arg‘un kabi ko‘plab turkiy guruuhlar tashkil etgan. Qoraxoniylar Movarounnahrdan o‘z hukmronligini o‘rnatganidan so‘ng, bu yerlarda qadimdan yashab kelayotgan o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasida yaqinlashish va aralashish jarayoni kuchayib bordi. Ularning iqtisodiy va madaniy hayoti bir-biri bilan uzviy aloqada rivojlanib, tub yerli aholi ta’sirida yarim ko‘chmanchi va yarim o‘troqlikda yashovchi etnik guruuhlar o‘zaro uyg‘unlashib, o‘troqlashish jarayoniga kirishdilar. Ular dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanish

orqali o‘z yurtlarida yangi madaniy qatlamlarni yaratdilar. Bu jarayon, ko‘chmanchilarning o‘ziga xos turmush tarzi bilan o‘troq hayot tarzining uyg‘unlashuvi natijasida, Qoraxoniylar davlati madaniyatining yuksalishiga olib keldi. Bu jarayonlar, o‘z navbatida, hayotning yangi ranglarini va imkoniyatlarini keltirib chiqardi. Bu obyektiv voqeа-hodisalar natijasida o‘zbek xalqining etnik, hududiy va madaniy jihatdan birlashuvi sodir bo‘ldi va bu davrda o‘zbek xalqining bir butun sifatida shakllanish jarayonining so‘nggi bosqichi ro‘y berdi[5]”. Qoraxoniylar davlati o‘zidan oldingi Turk xoqonligi va Turkash kabi turkiy davlatlarning boy tajribasi va an’analariga tayangan holda o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Qoraxoniylar sulolasi, davlat boshqaruvida o‘zlarining tajribalaridan samarali foydalanib, uni rivojlantirgan holda, yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Dastlab, IX asr o‘rtalarida tashkil topgan davlat ma’muriy-boshqaruv tizimi va qabilalarning o‘zaro ittifoqiga tayangan edi. Ushbu tizimda davlat boshlig‘i “yabg‘u” deb atalardi. O‘lka hududidagi barcha qabilalar yabg‘uga bo‘ysunib, u o‘z hukmronligi ostida joylashgan qabilalarni tashqi hujumlardan himoya qilish vazifasini zimmasiga olardi. Bu birlashuv, tarix sahnasida yangi bir davrni boshladi va kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor yaratdi. Har bir qabilani o‘z sardorlari boshqarar, ular o‘z qabilalarining harbiy sarkardalari sifatida ham xizmat qilgan. Yabg‘u buyruqlari ostida, harbiy harakatlar davomida ularning harbiy bo‘linmalari janglarda faol qatnashar edi. Bu hamkorlik, qabilalar orasidagi birdamlik va kuchni yanada mustahkamlab, davlatni yanada qudratli qilishga xizmat qildi. Vaqt o‘tgan sari, Qoraxoniylar davlatining ma’muriy boshqaruv usuli rivojlanib, takomillashib bordi. “X asrning o‘rtalarida, qo‘shti qabilalarni o‘z tarkibiga qo‘shib, hududlarini kengaytira boshlagan Qoraxoniylar, kuchli siyosiy kuchga aylanishi natijasida davlat boshqaruvida yangi islohotlar amalga oshirdilar. Davlat tepasida, odatda “qoraxon” unvoni bilan tanilgan “buyuk xon” o‘tirardi. Taxtga esa, og‘ainichilik an’analariga asoslanib, sulolaning eng yoshi ulug‘ kishisi tayinlanardi. Qoraxoniylar xonlari “qoraxon” unvoni bilan bir qatorda, tavg‘achxon, arslonxon va bug‘roxon kabi faxriy unvonlarga ham ega edilar[5]”.

“Davlat boshqaruvi yuqoridaн pastga qarab tashkil etilgan bo‘lib, viloyatlar alohida idora qilingan. El-yurt hokimlari “eloqxon” deb atilib, bu unvon egalari “elning oq xoni” – “buyuk xon” qoraxondan keyin nufuz va darajasiga ko‘ra ikkinchi o‘rinda turuvchi “kichik xon” sifatida qaralardi. Eloqxonlar, xoqon noibi bo‘lishiga qaramasdan, o‘z nomlari bilan tanga-chaqalar zarb etib, ichki va tashqi siyosatda mustaqillikka intilishardi. Eloqxonlar orasida Movarounnahr eloqxoni katta obro‘ga ega bo‘lib, odatda Samarqandda joylashardi. Ushbu davrda viloyatlarni “takin” unvonidagi shaxslar boshqarar edi. “Takin” atamasi dastlab qadimiy turkiyda xoqon vorisi yoki valiahdga nisbatan ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik harbiy lashkarboshilar unvoni sifatida ham qo‘llanildi[5]”. Somoniylar va Qoraxoniylar davrida “takin” unvonidagi harbiy lashkarboshilar, viloyat noiblari sifatida ham xizmat qilishardi. Shu

tariqa, Qoraxoniylar davlati o‘z tarixida o‘ziga xos bir sahifani ochib, mamlakatning ma’muriy tuzilishini rivojlantirishda ulkan qadamlar qo‘ydi. Bu davrda etnik va madaniy birliklar kuchayib, urf-odatlar va an’analar hayotda o‘z o‘rnini topdi. Xalqning ruhiyati va umummilliy uyg‘onishi jarayonida muhim rol o‘ynadi. Qoraxoniylar davrida takinlarning nufuzi keskin oshdi, ular harbiy yurishlar chog‘ida davlat hayotida muhim rol o‘ynashdi. Shaharlar boshqaruvi esa shahar hokimi, rais va muhtasiblar qo‘lida jamlangan bo‘lib, ularning vazifasi shaharning ichki hayoti va ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish edi. Diniy hayotda islom dini davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarildi. Davlatning mustahkamligi va g‘oyaviy birligi uchun Qoraxoniylar ruhoniylar bilan do‘stona aloqalarni rivojlantirishga intilishdi. Bu davrda imomlar, saidlar, shayxlar va sadrlarga e’tibor kuchayib, ularning obro‘sisi osmonlarni qamrab oldi. Bu esa davlatning siyosiy hayotida ularning ta’sirining kuchayishiga va vaqf yerlarining kengayishiga olib keldi. Ushbu jarayonlar, xalqning ruhiy va ma’naviy ko‘tarilishiga zamin yaratdi, Qoraxoniylar davlati esa ma’rifat, ilm va san’at sohalarida yangi ufqlarni ochdi. O‘sha davr, shubhasiz, tarix sahifalarida porloq iz qoldirdi. Qoraxoniylar davrida turli o‘lkalar birlashishi, fan va madaniyatning rivojiga katta imkoniyatlar yaratdi. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Bolasog‘un, Qashqar va O‘zgan kabi shaharlar ma’muriy va madaniy markaz sifatida ahamiyatini yanada oshirib, kengayib, rivojlanib bordi. Qoraxoniylar, fan va madaniyatning o‘lka hayotidagi muhim o‘rnini anglab, ularga homiylik qilishni o‘z zimmasiga oldilar. Buyuk ipak yo‘li asosidagi hududlararo savdo-sotiq jadal ravnaq topib, madaniy almashinuvlarni yanada kuchaytirdi. Bu jarayonlar, shubhasiz, Qoraxoniylar davrining ma’naviy va madaniy merosini boyitdi. Shu tariqa, bu davr o‘zining betakror yangiliklari va yuksak qadriyatları bilan tarix sahnasida muhrlandi. “Yuqoridagi kabi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar mintaqadagi madaniy hayotga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Turkiy tilning iste’mol doirasi to‘xtovsiz kengayib bordi[13:116]”.

“Mahmud Qoshgariy turkiy xalqlarning ilk ensiklopediyasi – “Devonu lug‘otit turk” (1072—1074) yaratdi va turkshunoslik ilmining asoschisi bo‘ldi. “Devonu lug‘otit turk”da turkiy xalqlarning tillari, og‘zaki ijodi, tarixi, yashash joylari va turmushi aks etgan bo‘lib, asar turkiy xalqlar tarixi bo‘yicha muhim manba hisoblanadi[1]”. “Devoni lug‘otit turk” asarida ifodalangan ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar va qarashlar hozirgi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Yoshlar ma’naviyatini oshirish, milliy urf-odatlarimiz, an’analarga va madaniyatimizga hurmat-e’tiborimizni kuchaytirishda bu adabiy-ma’naviy merosning roli nihoyatda katta. Ushbu asar, o‘sha davrning ruhini aks ettirib, ijtimoiy hayot muammolarini chuqr anglash, qadriyatlar tizimini tushunish va aholi ehtiyojlarini his etish imkonini beradi. Uning tahlili esa, umumiyl mushohada yuritib, xulosalar chiqarishga yordam beradi. Qoraxoniylar davrida (X—XI asrlar) Movarounnahr va Xorazmda hozirgi o‘zbeklarga xos turkiy

etnos shakllandi. Bu davrda o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan elatning belgilovchi hududi, tili, madaniyati va tarixiy taqdirining umumiyligi hosil bo‘ldi. Etnik o‘zlikni anglash, uyushqoqlik va dinning umumiyligi kabi alomatlar, bularning barchasi ma’lum bir davlat doirasida birlashdi. Ana shunday birlashuv orqali, o‘zbeklarning umumiy elat tili shakllandi, bu esa ularga o‘z etnik identitetini yanada mustahkamlash imkonini berdi.

Shu tariqa, Qoraxoniylar davri, milliy ong va madaniyatni rivojlantirishda o‘zining beqiyos ahamiyatiga ega bo‘lib, bugungi kunda ham biz uchun o‘rnak bo‘lib qoladi. “Umuman olganda, XI – XII asrda o‘zbeklar xalq sifatida shakllangan”. Ibrohim Tamgachxon (1040—1068) Samarqandda birinchi marotaba davlat mablag‘lari hisobidan madrasa qurdirish orqali madaniyatni rivojlantirishga katta hissa qo‘shti. Uning rahbarligida shahar o‘zi uchun yangi bir hayot boshladi: jamoat shifoxonasi va madrasa tashkil etilib, tibbiyot faniga oid bilimlar yurtimizda ommalashdi. 1066-yilda esa, Qusam ibn Abbas maqbarasiga yaqin joyda go‘zal bir madrasa bunyod etildi, bu esa Samarqandni yanada ma’rifatli qiladigan yangi bir sahifa ochdi. Shahar ko‘chalari bo‘ylab ajoyib bir qasrning qurilishi ham muhim voqeа bo‘ldi. Ushbu inshootlar nafaqat arxitektura san’atining benazir namunalari bo‘lib, ilm-fan va madaniyatning o‘sishiga turki berdi. Raboti Malik saroy majmuasi 1068-1080-yillarda Qoraxoni Shams al-mulkning buyurtmasi bilan Samarqandda bunyod etilgan. XIII asrdan boshlab, mo‘g‘ullar O‘rta Osiyon egallab olganidan keyin, bu ulkan majmua XVIII asrning boshlariga qadar savdo karvonlarining to‘xtashiga qarshi turadigan karvonsaroy sifatida xizmat qildi. Raboti Malik Markaziy Osiyo monumental me’morchiligining eng qadimi yodgorliklaridan biri bo‘lib, jahon ahamiyatiga ega me’moriy asar sifatida e’tiborga sazovor. Uning betakror arxitekturasi va tarixiy ahamiyati, bu hududning madaniy merosida alohida o‘rin egallaydi, avlodlar uchun bebaho yodgorlik sifatida qolmoqda. Raboti Malik, har bir toshida tarixning alifbosini yozgan holda, kelajak avlodlarga buyuk ajdodlarimizning ma’rifat yo‘lidagi harakatlarini eslatib turadi. “Qoraxoniylar davrining Samarqanddagi eng ko‘zga ko‘ringan yodgorligi – XII asrda qal’ada qurilgan Ibrohim ibn Husayn (1178-1202) saroyi. Qazish paytida monumental rangtasvirning parchalari topildi. Sharqiy devorda sariq kaftan kiygan va kamon ushlagan turkiy jangchi tasvirlangan. Bu yerda otlar, ovchi itlar, qushlar va davrga o‘xshash ayollar ham tasvirlangan[2]”. Amaliy bezak san’ati – naqshinkorlik, ganchkorlik va kulolchilik yo‘nalishlari rivojlangan. Adabiyot yuksalgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” kabi asarlari shu davrda yaratilgan. “Qoraxoniylar davri (X-XII asrlar) O‘rta Osiyo tarixida ma’naviyat va madaniyatning gullab-yashnagan davri hisoblanadi. Ushbu davrda musulmonlikning ta’siri, turkiy xalqning madaniyati va ilm-fanning rivoji o‘zaro uyg‘unlashgan[15]”. Keling, Qoraxoniylar davridagi ma’naviyatni bir necha jihatdan ko‘rib chiqamiz: Qoraxoniylar davrida Islom dini O‘rta Osiyoda keng

tarqaldi. Islomning ta'siri bilan ma'naviyatning asosiy tamoyillari - axloqiy qadriyatlar,adolat, rahm-shafqat va sabr kabi g'oyalar rivojlandi. Ularning hukmdorligi ostida, masjidlar va madrasalar qurildi, bu esa ilm-fan va ta'limni rivojlantirdi. Qoraxoniylar davrida turkiy va fors adabiyoti, xususan, she'riyat va proza rivojlandi.

Bu davrda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u Bilig" asari, Ahmad Yugnakiyning "Xibbat-ul-hikma" va boshqa adabiy asarlar yaratildi. Ahmad Yugnakiy o'zining "Hibat ul-haqoyiq" asarida shunday bayon qiladi:

"Bir bilimli bilimsizning mingiga teng,
Ming bilimsiz bilimliga bo'lolmas yeng.
Endi o'zing sinab ko'rgil, ber e'tibor,
Bilimdan foydaliroq qanday narsa bor?"[3].

Ushbu asarlar axloqiy, ma'naviy va ilmiy fikrlarni o'z ichiga olgan. Qoraxoniylar davri ilm-fan va ma'rifatning gullab-yashnagan davri hisoblanadi. Matematikadan, astronomiyadan tortib, tibbiyotgacha bo'lgan fanlar rivojlandi. O'rta Osiyodagi ilmiy markazlar, masalan, Buxoro va Samarqand, katta ilmiy meros qoldirgan. Qoraxoniylar hukmdorligi davridaadolat va ijtimoiy mas'uliyat masalalari muhim ahamiyat kasb etdi. Hukmdorlar xalqqa xizmat qilish, adolatli boshqaruvni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlashga intildilar. Bu g'oyalar "Qutadg'u Bilig" kabi buyuk asarlarda o'z ifodasini topdi. "Yusuf Xos Hojib va uning "Qutadg'u bilig" asari shak-shubhasiz turkiyzabon dunyodagi madaniyatlararo va dinlararo hamkorlikda katta ahamiyatga ega bo'lgan Sharq adabiyotining benazir namunasi hisoblanadi. Mumtoz turkiy tildagi she'riyatning deyarli besh ming yillik tarixi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga eltuvchi bilim") asaridan boshlanadi. Yusuf Xos Hojibning o'zi shunday yozgan edi: "Donishmandlar qo'lida ko'plab arab va fors kitoblari bo'lgan, ammo bu turkiylar ilk bora o'z tilini eshitgan kitobdir". Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Sharq adabiyotining benazir va tengi yo'q namunasi yaratilganining 950 yilligiga bag'ishlangan "Jahon turkologiyasining buyuk obidasi "Qutadg'u bilig" va uni o'rganishning dolzarb masalalari" mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning tashkil etilishi va o'tkazilishi turkiy dunyo uchun ham, dunyodagi tadqiqotchilar uchun ham ulkan va beqiyos ahamiyatga ega bo'ladi. Sharq adabiyoti donishmandligi o'nlab yillar davomida olimlarning hayrati va qiziqishiga sabab bo'lib kelmoqda. Ko'plab monografiyalar va ilmiy ishlar Yusuf Xos Hojibning turkiy tildagi durdonasini o'rganishga bag'ishlangan va hozirgi kunga qadar bu tadqiqotlarning dolzarbliji va zaruriyati saqlanib kelmoqda[12:8]".

Turkiy xalqlar o'z madaniyatini rivojlantirishda muhim qadamlar qo'yib, o'ziga xos urf-odatlari, an'analari va tilidagi o'zgarishlar orqali ma'naviy va madaniy hayotga yangi ranglar qo'shdilar. Shu tariqa, bu davr, umumbashariyat tarixida o'ziga xos bir mo'jiza sifatida yodda qoldi, madaniy boyliklarning kelajagiga mustahkam poydevor

bo‘lib xizmat qildi. “Turkiy muslimon olimi, fan, madaniyat va tillar xilma xilligi sohasida keng bilimga ega bo‘lgan balosog‘unlik Yusuf Xos Hojib tomonidan yaratilgan «Qutadg‘u bilig» asari turkiy islom adabiyotining dastlabki asrlaridan biri hisoblanadi. Bu nodir asar o‘z vaqtidan o‘zib ketgan va hozirgi paytgacha ham jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotini yoritadi va unga o‘z hissasini qo‘sadi. Unda bugungi kunda ham akademik tadqiqotga muhtoj bo‘lgan ko‘p jihatlar bor[7:5-6]”.

Bu davrda turkiy tilidagi adabiyot, folkor va musiqa rivojlana boshladi. Qoraxoniylar davri ma’naviyat, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi bilan xosdir. Ushbu davrda din, adabiyot, san’at va ilm-fan o‘rtasida o‘zaro aloqalar mustahkamlandi. Qoraxoniylar davrida shakllangan ma’naviy qadriyatlar va g‘oyalar, keyingi avlodlar uchun muhim manba bo‘lib qoldi. Bu davr, O‘rta Osiyoning ma’naviy merosida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Tadqiqotchilardan biri Q.Karimov bu haqda shunday yozadi: “...davlatni idora qilish usuli, siyosati, qonun-qoidalari, shuningdek, xalqning rasmu odatlarini, axloq pritsiplarini o‘zida mujassamlashtirgan nizomnama, qomus sifatida “Qutadg‘u bilig” yuzaga keldi[16:7]”. Qoraxoniylar davri – bu ma’naviyatning o‘ziga xos qirralari bilan yodda qolgan tarixiy bir sahifadir. O‘rta Osiyo madaniyatining gullab-yashnashi, san’at va ma’rifatning jadal rivojlanishi, turli diniy va falsafiy ta’sirlar bilan boyitilgan ushbu davrda, ma’naviyatning yuksak darajasi shakllandı. Bu davrda ma’naviyat ikki asosiy yo‘nalish orqali namoyon bo‘ldi: birinchidan, diniy qadriyatlar, ikkinchidan, falsafiy g‘oyalar va adabiyot. Yusuf Xos Hojibning ijodi, ayniqsa, “Qutadgu bilig” asari bilan bu ma’naviyatga muhim ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu asar,adolat, axloq va ijtimoiy tartib kabi qadriyatlarni chuqur o‘rganish orqali, zamonasining ruhini ifodaladi. Qoraxoniylar davrida, ushbu asar orqali insoniylik, ma’rifat va ijtimoiyadolat g‘oyalari mustahkamlangan, bu esa o‘z navbatida o‘zbek xalqining ma’naviy rivojida muhim bir o‘rin egalladi. Ma’naviyatning bu porloq zamoni, bugungi kunda ham bizni o‘rganishga, mulohaza yuritishga undaydi, qadriyatlarimizni hurmat bilan yodga olishga yordam beradi.

“Shoir insoniy fazilatlarga baho berish, inson zotining ma’naviy qiymatini aniqlashda avvalambor uning bilimli ekaniga e’tibor qaratadi. Hattoki, mingta bilimsiz odam bitta bilimli odamchalik qadrga ega emas, degan fikrni ilgari suradi[4:24]”. Yusuf Xos Hojib, o‘z asari orqali, insonning ruhiy va ma’naviy rivojlanishini, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam berish maqsadini ko‘zlagan. Ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar, shuningdek, Qoraxoniylar davlatining siyosiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutdi. Bu qadriyatlar, asosan, O‘rta Osiyoda turli xil etnik va madaniy guruhlar o‘rtasida muloqot va hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qildi.

Yusuf Xos Hojibning asarida bu qadriyatlarning ahamiyati kuchli tarzda ta’kidlangan. Ularning o‘rniga e’tibor qaratish, o‘sha davrda ilmiy, madaniy va ijtimoiy hayotda muhim rol o‘ynagan. Qoraxoniylar davrida ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar va

Yusuf Xos Hojib ijodi o‘rtasidagi bog‘lanish, o‘sha paytning hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi, insonlarni o‘zligini anglashga va yuksak maqsadlarga intilishga undadi. Bu, kelajak avlodlarga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi va o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga hissa qo‘shdi. Qoraxoniylar davri (X-XII asrlar) O‘rta Osiyo va janubiy Qozog‘iston hududlarida muhim tarixiy davr hisoblanadi. Bu davrda davlat, madaniyat va ilm-fan rivojlanishi o‘zgaruvchan muhitda sodir bo‘lgan. Ma’naviyat, shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, din va falsafa kabi omillardan iborat. Qoraxoniylar davrida islom dinining kuchli ta’siri tufayli ma’naviyat yuqori darajada rivojlandi. Bu davrda insonlar axloqiy va ruhiy jihatdan o‘zlarini tarbiyalashga intilishgan. Yusuf Xos Hojib (1021-1075) - o‘z davrining ulug‘ mutafakkiri, shoir va olimi sifatida tarix sahnasida alohida o‘rin egallagan shaxsdir. Qoraxoniylar davrida ijtimoiy-siyosiy muhit “Qutadg‘u bilig” asarining yaratilishiga kuchli asos bo‘lib xizmat qildi. Mahmud Qoshg‘ariy zamondoshi Yusuf Xos Hojibning ijodi, o‘zining badiiy sayqali va yuksak mahorati bilan ajralib turadi. Uning nomini yurtdan-yurtga, xalqlardan-xalqlarga tarqatgan asar esa “Qutadg‘u bilig” – “Baxt va saodat eltuvchi bilim”dir. Ushbu kitob, turkiy xalqlar va elatlar hayoti haqidagi muhim bir asar bo‘lib, davrning o‘ta muhim masalalari, axloq, odob va ma’rifat masalalarini chuqur yoritadi. “Qutadg‘u bilig”ni turli xalqlar o‘z tillarida o‘ziga xos nomlar bilan atagan: chinliklar “Adabul muluk”, mochinlar “Oyinul mamlakat”, Sharqning ulug‘lari “Ziynatul umaro”, eronliklar “Shohnomai turkiy”, turonliklar esa “Qutadg‘u bilig” deb nomlaganlar. Ushbu asar ma’naviyat, axloq, siyosat va boshqaruv tamoyillarini o‘z ichiga olgan muhim bir asar sifatida alohida ahamiyatga ega. U insonning ma’naviy kamoloti, to‘g‘ri yo‘lni tanlash va ijtimoiy adolat kabi g‘oyalarni chuqur yoritadi. Qoraxoniylar davrida ma’naviyatning yuksalishi, Yusuf Xos Hojib ijodida yorqin ifodasini topdi. Uning asarlarida aks ettirilgan ma’naviy g‘oyalarni insoniyatning axloqiy va ruhiy tarbiyasiga xizmat qilib, jamiyatni rivojlantirish vaadolatli boshqaruv tamoyillarini yoritishda muhim rol o‘ynadi. IX -XII asrlar davomida Qoraxoniylar davri, Turkiston va uning atrofidagi hududlarda madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning jadal sur’atlari bilan ajralib turdi. Bu vaqt, nafaqat tarix sahnasida o‘ziga xos bir sahifa ochdi, balki ma’naviy merosimizni boyitish, ilm-fan va san’atning yuksalishi bilan ham bog‘liq bo‘ldi. Musulmon madaniyati, ilm-fan va adabiyot yangi balandliklarga erishib, o‘zining betakror shakllari bilan ko‘plab iqtidorlarni o‘z ichiga oldi.

Qoraxoniylar zamonasi, bu sohalarda chuqur iz qoldirib, kelajak avlodlarga bebaho meros qoldirdi. Madaniyatning har bir qirrasi, o‘zaro bog‘liq jarayonlar orqali, yanada kuchli va uyg‘un bir tizimga aylanib, xalqimizning ma’naviy hayotini boyitdi. Ma’naviyat - bu umuman insoniyatning ruhiy, axloqiy va estetik qadriyatlari to‘plami. Qoraxoniylar zamonida Qur‘on va hadislar, shuningdek, falsafa va sufiylik g‘oyalari muhim o‘rin tutgan.

Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida ma’naviyat va axloqiy qadriyatlarni muhim o‘rin tutadi. Ushbu asar turkiy adabiyotning bиринчи ўрік namunalardan biri bo‘lib, unda aqidalar, insoniy fazilatlar, adolat, bilim, va axloqiy me’yorlar tasvirlangan.

1. **“Bilim va fikr:** Davrning ma’naviyati, ilm-fan va falsafaga bo‘lgan qiziqish bilan ham bog‘liq. Yusuf Xos Hojib o‘z asarida ilm olish, hikmat va ma’rifatni ulug‘laydi”.

2. **“Sufiylik g‘oyalari:** Sufiylik ta’limotlari ham bu davrda keng tarqalgan. Yusuf Xos Hojib asarida ruhiy hayot va ilohiy ma’naviyatga yo‘naltiruvchi g‘oyalarni o‘z ichiga oladi”.

3. **Turkiy madaniyat:** Ma’naviyatning bunday kuchli ta’siri, turkiy adabiyotda til, madaniyat va an’analar rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib o‘z asarida o‘z zamonasining turkiy tilida ma’naviy g‘oyalarni ifodalaydi[11:269].

Qoraxoniylar davrida ma’naviyat, Yusuf Xos Hojib ijodiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Yusuf Xos Hojib asarlarida aks etgan axloqiy qadriyatlар, bilimga bo‘lgan ehtiros va ruhiy izlanishlar o‘sha davr ma’naviy muhitining yorqin ko‘zgusini yaratadi. Bu qadriyatlар bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolib, o‘z muhimligini yo‘qotmayapti. Uning ijodidagi ta’sir, asosan, ma’naviyat, axloqiy qadriyatlар va ijtimoiy g‘oyalari orqali namoyon bo‘ladi. Yusuf Xos Hojibning asarlari o‘z davrining ma’naviyati, axloqi va ijtimoiy sharoitlari bilan uyg‘unlashib, keng bir tasavvur yaratadi. Ularning betakror ahamiyati nafaqat adabiyotda, balki ma’naviyat sohasida ham yuksak baholanadi va avlodlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishda o‘z o‘rnini topadi. Shunday qilib, uning ijodi zamon o‘tar ekan, har bir avlodga, har bir inson ruhiyatiga o‘zining ilohiy ta’sirini o‘tkazib, ma’naviy kamolot sari yo‘l ochadi. Yusuf Xos Hojibning ijodi, haqiqatan ham, vaqt sinovidan o‘tgan bir yodgorlikdir. Uning fikrlari va g‘oyalari, jamiyatimizda adolat, axloqiylik va bilimga bo‘lgan ehtiyojni har doim o‘zida mujassam etadi. Shuning uchun, uning asarlariga e’tibor qaratish, nafaqat tarixni anglash, balki kelajak avlodlar uchun muhim bir asos bo‘lib xizmat qiladi. U, turkiy madaniyatni yuksaltirishda va insoniy qadriyatlarni ulug‘lashda muhim rol o‘ynagan.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u Bilig” asari o‘zbek adabiyotining nodir durdonalaridan biri hisoblanadi. Bu asar XI asrda yozilgan bo‘lib, turkiy tilida yaratilgan dastlabki asarlar qatoriga kiradi. Uning nomi “Dono bo‘lish uchun qo‘llanma” ma’nosini anglatadi va asar bir qator mavzularni, jumladan, axloq, siyosat, va bilim haqida mulohazalar keltiradi. Asar, asosan, didaktik shaklda yozilgan bo‘lib, unda oqil va dono bo‘lishning ahamiyati, insoniy fazilatlar, va har bir insonning jamiyatdagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi. “Qutadg‘u Bilig” asarining uslubi o‘ziga xos, zamonida keng tarqalgan maqol, misol va hikmatlardan foydalanadi. Bu uslub o‘qituvchi va tinglovchi o‘rtasida muloqotni osonlashtiradi va axloqiy saboqlarni qulayroq etkazishga yordam beradi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u Bilig” asari, o‘z

zamonining ijtimoiy, madaniy va axloqiy muammolarini o‘z ichiga olgan muhim bir asar. U nafaqat o‘z zamonida, balki hozirgi kunda ham insoniyat uchun ahamiyatli saboqlarni o‘z ichiga oladi. Bu asar, “o‘zini rivojlantirish, ma’rifat va axloqiy qadriyatlarni saqlashga chaqiradi. usuf Xos Hojibning “Qutadg‘u Bilig” asari ma’naviyat va axloqiy qadriyatlar nuqtai nazaridan beqiyos ahamiyatga ega[11:269]”. Ushbu asar insonning ma’naviy kamolotini va axloqiy fazilatlarini anglashga qaratilgan muhim saboqlarni o‘z ichiga oladi. Muallif, asar orqali, bilimning ma’naviyatdagi ahamiyatini kuchli ravishda ta’kidlaydi. Bilim, insonni nafaqat aqli qiladi, balki uning ma’naviy rivojlanishini va to‘g‘ri yo‘lni tanlashini ham ta’minlaydi. O‘qish va o‘rganish jarayoni insonni donolikka, kuchli axloqiy fazilatlarga va shaxsiy o‘sishga olib keladi. “Qutadg‘u Bilig”da sabr,adolat va mehr-muruvvat kabi insoniy fazilatlar alohida ahamiyatga ega. Bu tushunchalar, hayotda muvaffaqiyat qozonish va ijtimoiy aloqalarni yaxshilashda muhim o‘rin tutadi. Ular kelajak avlodlar uchun mustahkam yo‘l-yo‘riq bo‘lib, jamiyatda insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlab, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Muallifning ta’kidlashicha, haqiqiy ma’naviyat insonning o‘z-o‘zini tarbiyalashi va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishida namoyon bo‘ladi. Bu esa, shubhasiz, jamiyatni rivojlantirish va adolatli kelajak qurishda zarur bo‘lgan sifatlar hisoblanadi. Har bir inson o‘z ichki dunyosini boyitishi, haqiqiy qadriyatlarni anglab yetishi va o‘z mas’uliyatini tushunishi orqali o‘z hayotini ma’noli va mazmunli qiladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u Bilig” asarini misollar bilan tahlil qilish, uning o‘ziga xos g‘oyalarini va ahamiyatini yanada yaxshiroq anglashga yordam beradi. Asar ko‘plab maqol va hikmatlar bilan boyitilgan bo‘lib, har bir qismida muhim axloqiy va ma’naviy saboqlar berilgan. Asarda “Bilimsiz insonga qadar, dononi izlash ham foydasiz” degan fikr bilimning ahamiyatini va insonning o‘zini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu jumla, bilimning inson hayotidagi o‘rnini va shaxsiy o‘sish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni egallashning muhimligini ko‘rsatadi. Hozirgi kunda ham bilim olish va o‘z-o‘zini tarbiyalash insonning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. “O‘zini bilmagan, boshqa narsani bilmas” degan hikmat. Bu o‘z-o‘zini anglash va insonning ichki dunyosini tushunish zarurligini ta’kidlaydi. Zamonaviy hayotda ko‘p odamlar o‘z maqsadlarini aniqlash va o‘zligini tanish uchun ichki mulohaza va o‘z-o‘zini tahlil qilishga muhtoj. “Sabrsiz insonning mehnati, behuda” degan ibora sabrning ahamiyatini ifodalaydi. Bu jihat, insonning qiyinchiliklarga bardosh berishi va muvaffaqiyatga erishish yo‘lida sabr-toqat ko‘rsatishi kerakligini anglatadi. Zamonaviy hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun sabr va qat’iyat juda muhimdir. “Adolatli hukmdor, xalqqa rahnamo bo‘ladi” fikri, rahbarlarning o‘z vazifalarini qanday bajarishi kerakligini ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda, adolatli boshqaruv va rahbarlik, ijtimoiy barqarorlikni ta’minalashda muhim rol o‘ynaydi. Adolatli rahbarlar jamiyatning taraqqiyotida asosiy o‘rin tutadi. “Mehr va saxovat, insonning eng ulug‘ fazilatidir” degan fikr, insoniylik

va rahm-shafqatni ta'kidlaydi. Bugungi kunda, ijtimoiy muammolar va ajralishlar ko'payganida, mehr-muruvvatni rivojlantirish, odamlar o'rtasida bir-biriga yordam berish muhimdir. "Qutadg'u Bilig" asari nafaqat o'z zamonida, balki hozirgi kunda ham dolzarb saboqlarni o'z ichiga oladi. Har bir misol, insoniyatning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini, o'z-o'zini rivojlantirish va jamiyatdaadolatni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Asar, hozirgi kunda har bir inson uchun muhim yo'l-yo'riq va ilhom manbai hisoblanadi. Asarda jamiyatdagi axloqiy mas'uliyat,adolatli boshqaruv va insonga bo'lgan hurmat kabi qadriyatlar alohida ta'kidlanadi[11:269]".

Hukmdorlarning ma'suliyatlari bo'lishi, xalqqa xizmat qilishi, vaadolatni ta'minlashi zarurligi, ayniqsa, muhimdir. Bu g'oyalar asarning ma'naviy poydevorini tashkil etadi. Yusuf Xos Hojiyning "Qutadg'u Bilig" asari, ma'naviyatni anglash va rivojlantirish uchun muhim bir qo'llanma hisoblanadi. Ushbu asar, insonni o'zligini, ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishga, jamiyatda o'z o'rnini topishga undaydi. Bu o'z navbatida, shaxsning ichki dunyosini boyitib, ijtimoiy barqarorlik va yaxshilikni ta'minlaydi. Asar, zamonaviy hayotda ham dolzarb bo'lib, har bir inson uchun ma'naviy yo'l-yo'riq sifatida xizmat qiladi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u Bilig" asarining bugungi kunda ahamiyati juda yuqori. Ushbu asar, nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy hayotda ham insoniyat uchun qimmatli saboqlarni taqdim etadi. Hozirgi kunda insonlar o'rtasida ma'naviy inqiroz va axloqiy muammolar ko'payib bormoqda. "Qutadg'u Bilig"da keltirilgan axloqiy qadriyatlar "sabr,adolat, va mehr-muruvvat kabi tushunchalar, zamonaviy hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu qadriyatlarni o'z ichiga olgan bir jamiyat barqaror va sog'lom bo'ladi. Asarda bilim va ma'rifatning qadriga yetish ta'kidlanadi. Bugungi kunda, tezkor o'zgaruvchan dunyoda, bilimga ega bo'lish va o'z-o'zini rivojlantirish muhimdir[11:269]".

"Qutadg'u Bilig" har bir insonni o'z bilimini oshirishga, doimiy o'qishga va o'zini tarbiyalashga undaydi. Asar jamiyatdagi ijtimoiy mas'uliyat vaadolatli boshqaruvga e'tibor qaratadi. Hozirgi kunda,adolat va tenglik masalalari dolzarbdir. "Qutadg'u Bilig" hukmdorlar va rahbarlar uchun axloqiy va ma'naviy mas'uliyatni anglashga yordam beradi, bu esa yaxshiroq boshqaruv va xalqqa xizmat qilishga olib keladi. Ushbu asar, insonning o'z-o'zini anglash va tabiiy muhit bilan muvozanatda yashashini ta'kidlaydi. Bugungi kunda, ekologik muammolar va tabiiy resurslardan foydalanish masalalari muhim ahamiyatga ega. "Qutadg'u Bilig" insonning tabiiy muhitga nisbatan mas'uliyatini va uning qadrini anglashga yordam beradi. Asarda muloqot va insonlar o'rtasidagi munosabatlar haqida ham fikrlar keltiriladi. Hozirgi kunda insonlar o'rtasida empatiya, tushunish va muloqot muhimdir. "Qutadg'u Bilig" bu jihatlarni rivojlantirishga, insonlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Yusuf Xos Hojiyning "Qutadg'u Bilig" asari bugungi kunda ham dolzarb va ahamiyatli bo'lib qolmoqda. Ushbu asar, "insoniyat uchun ma'naviy, axloqiy va

ijtimoiy qadriyatlarni o‘rganish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va adolatli jamiyat qurish yo‘lida zarur bo‘lgan qo‘llanma sifatida xizmat qiladi. O‘zining doimiy noyobligi va insoniyat tarixidagi o‘rni bilan bog‘liqdir[10:32]”.

Xos Hojibning “Qutadgu bilig” asarini bugungi kunga taqqoslaganda bir necha muhim jihatlar ko‘zga tashlanadi. Asarda adolat, samimiyat, do‘stlik va axloqiy me’yorlar muhim o‘rin tutadi. Hojib, insonni ma’naviy jihatdan tarbiyalashni ta’kidlaydi. Axloqiy qadriyatlар hali ham dolzarbdır, ammo globalizatsiya va zamonaviy texnologiyalar tufayli ayrim joylarda axloqiy me’yorlar o‘zgarayotganini ko‘rish mumkin. Odamlar ko‘proq individualizmga intilmoqda. Ta’lim va bilim olish asarda katta ahamiyatga ega. Hojib, ilmga chanqoq inson sifatida bilimni ulug‘laydi. Ta’lim yanada ommalashgan. Internet va raqamli texnologiyalar orqali har kim kerakli bilimlarni olish imkoniyatiga ega. Biroq, ilmni qanday foydalanish va ahloqiy mas’uliyat ham dolzarb masala. Hukmdorlar va rahbarlar, o‘z xalqini to‘g‘ri yo‘lga boshqarish mas’uliyatiga ega. Siyosatdagi shaffoflik, adolat va xalq manfaatlariga xizmat qilish zaruriyati o‘sib bormoqda. Biroq, ko‘plab mamlakatlarda siyosiy beqarorlik va korrupsiya muammolari davom etmoqda. “Qutadgu bilig” asari, o‘z zamonida ma’naviyat, axloqiy qadriyatlар va ijtimoiy muammolarni ko‘targan. Bugungi kunda ham bu masalalar dolzarb. Shuning uchun Hojibning g‘oyalari zamonaviy hayotda ahamiyatini yo‘qotmagan va hozirgi avlodlar uchun ham ma’naviy yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qilishi mumkin.

Asar orqali o‘rganiladigan axloqiy va ijtimoiy saboqlar, har doim ahamiyatini saqlab qoladi. “Aytish joizki, asrlar oshsada aholida farovon hayot kechirishga bo‘lgan intilish aslo kamaymadi. O‘rta asrlar davrida xalqlarning shakllanish jarayoni ro‘y berdi, madaniyat va san‘at yuksaldi. Sharqda Uyg‘onish madaniyati, Sharq Renessansi yuz berdi. O‘rta Osiyoda islom dini tufayli musulmon madaniyati shakllana boshladi. Tabiiy, ilmiy fanlar bilan birga diniy ta’limot rivoj topdi[9:14-19]”.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadgu bilig” asari, o‘z davrining axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarni aks ettirgan muhim manbadir. Asar, ideal inson, adolatli hukmdor va bilim olishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bugungi kunda ham bu g‘oyalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy hayotda ijtimoiy adolat, axloqiy me’yorlar va ruhiy rivojlanish kabi masalalar doimo muhokama qilinadi. “Qutadg‘u bilig” asarining g‘oyalari o‘z zamonida yuzaga kelgan muammolarni hal etishdan tashqari, hozirgi avlodlar uchun ham ma’naviy yo‘l-yo‘riq sifatida ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning axloqiy saboqlari, insoniyatni yanada yaxshi hayotga erishish yo‘nalishida yo‘naltiruvchi sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, Hojibning asari zamon bilan ajralmas bog‘lanishga ega bo‘lib, ma’naviy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi, hayotimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi manba sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. “Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish[8:6]” bugungi kunimizning asosiy

vazifalaridan biridir. Yangi O'zbekistonni barpo etish maqsadida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik sohalarda kompleks o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon, mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, xalq farovonligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning o'zgarishlarga qo'shgan hissasi muhim ahamiyatga ega. Yoshlar esa har bir jamiyatning kelajagi va umidi bo'lib, ular mamlakat taraqqiyotida nafaqat muhim rol o'ynaydi, balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangiliklarni keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ular, bilim, ma'naviyat va kreativlik bilan to'ldirilgan holda, kelajakda yurtimizni rivojlantirishda asosiy omilga aylanadi.

Bugungi kunda yoshlar zamonaviy ta'lim tizimining imkoniyatlaridan va innovatsion yondashuvlardan ilhomlanib, o'z maqsadlariga erishish uchun faol harakat qilishmoqda. Global muammolarni hal qilishda, ijtimoiy adolatni ta'minlashda va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda jasur qadamlar tashlamoqdalar. Yoshlarning fikrlari va g'oyalari, ijtimoiy o'zgarishlar uchun zarur bo'lgan yangi yondashuvlarni olib kelishi bilan birga, kelajakda katta o'zgarishlarning yo'lboshchisi bo'lish umidini baxsh etadi. Ularning yurtga, jamiyatga bo'lgan sodiqligi va intilishlari, albatta, kelajagimizni porloq va yuksak maqsadlar sari yo'naltiradi.

"Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, Uyg'onish davri kuzatilishi uchun qulay sharoit bo'lishi bilan birgalikda, taraqqiyotga to'siq bo'luvchi omillar ham hal qilingan bo'lishi shartdir[4:28]". Shuningdek, yoshlarni tarbiyalash va ularga yetarlicha imkoniyatlar yaratish – jamiyatning vazifasi. Ularning madaniyat, san'at va sportdagи muvaffaqiyatlari, nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki mamlakatimizning xalqaro maydondagи imijini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Yoshlar kelajagimizdir, ularning bilim va mahorati bilan qudratli, barqaror va jozibador O'zbekistonni barpo etish mumkin. Shuning uchun, yoshlarning fikrlari va ishtiyoqi, har birimiz uchun katta ahamiyatga ega. Ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, kelajagimizni porloq qilish yo'lidagi eng muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar / Использованная литература / References

1. E. Van Donzel. "Al-Kâshgharî" (inglizcha). The Encyclopedia of Islam. IV. Leiden — New York: E. J. Brill, 1997.
2. Grene F., Karev Yu. V., Isamiddinov M., Afrasiab turar joyidagi arxeologik ishlar // MITSAI Axborotnomasi, 2005-yil 1-son.
3. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_mumtoz_adabiyoti/Ahmad%20Yugnakiy.%20Hibatul%20haqoyiq.pdf. Murojaat sanasi: 8.01.2024 y.

4. Muhamedov A.A. "Yusuf Xos Hojib va Mishel Monten ijtimoiy-falsafiy merosining komparativistikasi": Falsafa fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Andijon, 2024.
5. Азамат Зиё. Қорахонийлар. URL: <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/uzbek-davlati/365-qoraxoniylar.html> Murojaat sanasi: 2.12.2024 у.
6. Гулчехра Рихсиева, Тошкент давлат шарқшунослик университети ректори. Табрик сўзи. ЖАҲОН ТУРКОЛОГИЯСИННИНГ БУЮК ОБИДАСИ “ҚУТАДҒУ БИЛИГ” ВА УНИ ЎРГАНИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ ХАЛҚАРО КОНФЕРЕНЦИЯ ТҮПЛАМИ. – Тошкент, 2020.
7. Махмут Ақ, Истанбул университети ректори. ЖАҲОН ТУРКОЛОГИЯСИННИНГ БУЮК ОБИДАСИ “ҚУТАДҒУ БИЛИГ” ВА УНИ ЎРГАНИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ ХАЛҚАРО КОНФЕРЕНЦИЯ ТҮПЛАМИ. – Тошкент, 2020.
8. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021.
9. Муминов А. Г. Ўзбекистон барқарор ривожланиш йўлида. Философия и право, 2023, 25 (2).
10. О.А.Орлова. Эсхатологические мотивы в творчестве М. А. Булгакова (на материале романов «Белая гвардия» и «Мастер и Маргарита»). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – М, 2008.
11. Современное образование как открытая система (под ред. Н.Г. Ничкало, Г.Н. Филонова, О.В. Суходольской-Кулешов ой). - "Институт научной и педагогической информации РАО, "ЮРКОМПАНИ", 2012 г.
12. Алишев Т. ЖАҲОН ТУРКОЛОГИЯСИННИНГ БУЮК ОБИДАСИ “ҚУТАДҒУ БИЛИГ” ВА УНИ ЎРГАНИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ ХАЛҚАРО КОНФЕРЕНЦИЯ ТҮПЛАМИ. – Тошкент, 2020.
13. Усмонов Қ., Содиков М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002.
14. Утаев F. F. Аждодларимиз тафаккури ва буюк даҳоси / Academic research in educational sciences, TMA Conference. 3 (3), 2022.
15. Шершеневич Г. Ф. Общая теория права. Тома I-II. – Москва, издание Бр. Башмаковых, 1910 г. <http://ivo.garant.ru/#/document/3943993>.
16. Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг” (Саодатга йўлловчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчилар филол.фан.кан. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971.